



**“TASDIQLAYMAN”**  
**“Hududgazta'minot” AJ**  
**Boshqaruv raisining birinchi**  
**o'rinbosari, komissiya raisi**

  
A. Saidvaliyev

“11” 05 2023 yil

**Hududgaz gaz ta'minoti filiallari ehtiyojlari uchun**  
**ishlatiladigan kislorod ballonlarini navbatdagi sinovdan o'tkazish xizmatini**  
**xarid qilish bo'yicha**  
**TEXNIK TOPSHIRIQ**

## UMUMIY MA'LUMOTLAR

| Bo'lim/qism | Nomi  |
|-------------|---|
|             | <b>1-Bo'lim. Umumiy ma'lumotlar.</b>  |
| 1.1-qism    | Hududgaz gaz ta'minoti filiallari uchun kislorod ballonlarini sinovdan o'tkazish xizmatini xarid qilish.  |
| 1.2-qism    | Jamiyat tarkibidagi gaz ta'minoti filiallari gaz xo'jaliklarini barqaror ishlashini ta'minlash uchun filiallar balansidagi kislorod ballonlarini sinovdan o'tkazish yuzasidan.  |
| 1.3-qism    | O'zbekiston Respublikasida kislorod ballonlarini sinovdan o'tkazish vakolatiga ega bo'lgan tashkilot tomonidan "Bosim ostida ishlaydigan idishlarning tuzilishi va xavfsiz ishlatish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi yo'riqnoma (2011-yil 23-dekabr 6-24/11-13112/6-son) talablar asosida o'tkazilishi shart.   |
| 1.4-qism    | Kislorod ballonlari 15-20 Mpa (150-200 kgs/sm <sup>2</sup> ) bosimdagi gazsimon kislorodni o'z ichiga oladi. Kislorod ballonlari 15-20 Mpa (150-200 kgs/sm <sup>2</sup> ) bosim ostida saqlanadi va tashiladi. Texnik ko'rikdan o'tish muddati tugagan, ustki korpusi yoki ventili shikastlangan, rangi yoki yozuvi qoidalarga to'g'ri kelmaydigan ballonlardan foydalanish taqiqlanadi. Kislorod ballonlari bosim ostida sinovdan o'tgandan so'ng keyingi sinov muddati sinovdan o'tkazgan tashkilot tomonidan muhrlangan holda ko'rsatilishi shart. |
| 1.5-qism    | Kislorod ballonlarini sinovdan o'tkazuvchi tashkilot kislorod ballonlarini sinovdan o'tkazish vakolatiga ega tashkilot bo'lishi kerak va amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda o'tkazilishi shart.  |
| 1.6-qism    | Kislorod ballonlarini sinovdan o'tkazuvchi tashkilot Kislorod ballonlarini sinovdan o'tkazishga mo'ljallangan tashkilot bo'lishi zarur.   |
|             | <b>2-Bo'lim. Qo'llanish sohasi.</b>   |
| 2.1-qism    | Kislorod ballonlari sinovdan o'tkandan so'ng belgilangan muddatda va soz holatda foydalanilishini ta'minlash maqsadida.   |
|             | <b>3-Bo'lim. Foydalanish shartlari.</b>   |
| 3.1-qism    | Kislorod ballonlari sinovdan o'tkandan so'ng to'g'ri ekspulatsiya qilinganda xizmat belgilangan muddatgacha texnik soz holatda bo'lishi o'tkazuvchining aybi bilan ishlash muddatini oxirigacha ishlab bermagan holda bepul ta'mirlab berishi yoki qo'shimcha pul to'lashiga doir kafolat shartlarini to'lashiga doir kafolat shartlarini ularni o'tkazuvchi korxonalar bilan kelishib olinishi shart.  |
| 3.2-qism    | Kislorod ballonlarining foydalanish muddati belgilangan tartibda bo'lishi kerak.  |
|             | <b>4-Bo'lim. Topshirish va qabul qilish qoidalariga qo'yiladigan talablar.</b>  |
| 4.1-qism    | Kislorod ballonlarini topshirish va qabul qilish ishlari amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.   |

|          |  |
|----------|--|
|          | <b>5-Bo'lim. Transportirovkaga qo'yiladigan talablar.</b>  |
| 5.1-qism | Kislorod ballonlarini transportirovka qilish ishlari amaldagi qoida va yo'riqnomalarga asosan tegishli avtotransport vositalari orqali amalga oshirish o'rnatilgan tartibda. |
|          | <b>6-Bo'lim. Saqlashga qo'yiladigan talablar.</b>  |
| 6.1-qism | Ishlab chiqaruvchi zavodning normativ-texnik hujjatlari va standartlariga asosan.  |
|          | <b>7-Bo'lim. Kafolat doirasi va / yoki muddatiga qo'yiladigan talablar.</b>  |
| 7.1-qism | Kislorod ballonlaridan foydalanish kafolat muddatini belgilash va foydalanish uchun kafolat muddati tasdiqlangan holda bo'lish shart.  |
|          | <b>8-Bo'lim. Ekologik va sanitar talablar.</b>   |
| 8.1-qism | Amaldagi ekologik va sanitar me'yorlari va talablariga asosan  |
|          | <b>9-Bo'lim. Xavfsizlikga qo'yiladigan talablar.</b>   |
| 9.1-qism | Amaldagi texnika va sanoat havfsizligi qoidalari hamda me'yoriy talablariga asosan   |

**Ishlab chiqilgan:**

Tabiiy gaz ta'minoti obyektlaridan samarali foyalanish boshqarmasi bosh mutaxassisi



A. Abduxakimov

Tabiiy gaz ta'minoti obyektlaridan samarali foyalanish boshqarmasi boshlig'i



X. Onorbayev

**Kelishilgan:**

MMQ, FM, G va EX, FHO' va UOO boshqarmasi



A. Qayumov

